



SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF RETROFLEX (CEREBRAL) SOUNDS IN PASHTO AND HINDI LANGUAGES

Murodjon Samarxo'jayev

3rd-year student of the Pashto-English group

Tashkent State University of Oriental Studies

"Iranian and Afghan Studies" Faculty

E-mail: murodjonsamarxojayev21@gmail.com

A. Mannonov

Professor, Doctor of Philology

Faculty of "Iranian and Afghan Studies"

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: retroflex sounds, cerebral sounds, voiced retroflex sounds, voiceless retroflex sounds, trilled sounds, loanwords from foreign languages.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: Studying the phonetics of every language in the world is one of the important goals and responsibilities of language learners today. One of the distinctive features of the phonetics section is the deep study of retroflex (cerebral) sounds, which is one of the important reasons for students learning Pashto and Hindi. This article examines the similarities and differences of retroflex (cerebral) sounds in Pashto and Hindi languages. The main goal of the article was to analyze the noticeable and significant similarities and differences in the pronunciation of cerebral sounds in both languages.

PASHTU VA HINDIY TILLARIDAGI RETROFLEKS (SEREBRAL) TOVUSHLARNING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Murodjon Samarxo'jayev

3-kurs pashto-ingliz guruhi talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi

E-mail: murodjonsamarxojayev21@gmail.com

A. Mannonov*Professor, filologiya fanlari doktori**“Eronshunoslik va afg'onshunoslik” oliy maktabi**TDSHU**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: retrofleks tovushlar, serebral tovushlar, jarangli retrofleks tovushlar, jarangsiz retofleks tovushlar, titroq tovushlar, chet tillaridankiribkelganso'zlar.

Annotatsiya: Dunyodagi har bir tilning fonetikasini o'rganish bugungi kunda til o'rganuvchilarning muhim maqsadi va majburiyatlaridan biri hisoblanadi. Fonetika bo'limining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan retrofleks (serebral) tovushlarni chuqurroq o'rganish esa pashtu va hindiy tilini o'rganayotgan o'quvchilar oldidagi muhim sabablablardan biridir. Ushbu maqolada Pashtu va Hindiy tillaridagi retrofleks (serebral) tovushlarning o'xhash va farqli jihatlari ko'rib chiqildi. Maqolaning asosiy maqsadi ikki tildagi serebral tovushlarning talaffuzidagi ko'zga ko'ringan va sezilarli yoki o'xhash va o'xhash bo'lmagan tomonlari tahlili edi.

СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ РЕТРОФЛЕКСНЫХ (ЦЕРЕБРАЛЬНЫХ) ЗВУКОВ В ПАСХТУ И ХИНДИ

Муроджон Самарходжаев*Студент 3-го курса пасхто-английской группы**Ташкентский государственный университет востоковедения**Факультет "Ирановедение и афгановедение"**E-mail: murodjonsamarhojayev21@gmail.com***A. Маннонов***Профессор, доктор филологических наук**"Ирановедение и афгановедение"**Ташкентского государственного университета востоковедения**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: ретрофлексные звуки, церебральные звуки, звонкие ретрофлексные звуки, беззвучные ретрофлексные звуки, трель, заимствованные слова из иностранных языков.

Аннотация: Изучение фонетики каждого языка мира является одной из важных целей и обязанностей изучающих язык сегодня. Одной из отличительных черт раздела фонетики является более глубокое изучение ретрофлексных (церебральных) звуков, что является одной из важных причин для студентов, изучающих пушту и хинди. В данной статье рассматриваются сходства и

различия ретрофлексных (церебральных) звуков в языках пушту и хинди. Основной целью статьи было анализировать заметные и существенные сходства и различия в произношении церебральных звуков в обоих языках.

Dunyodagi jamiki tillarning fonetikasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda pashtu va hindiy tillari fonetikasining o'xhash va farqli jihatlari mavjudligi bugungi kunda tilshunoslar tomonidan yetarlicha o'rganilmagan sohadir. Pashtu va hindiy tillaridagi retrofleks (serebral) tovushlar har ikki tilning fonetika bo'limida muhim o'ringa egadir. Bu ikki tilni asosiy fan sifatida o'rganuvchilarda ikki tilning fonetika bo'limidagi retrofleks (serebral) tovushlarning o'xhash va farqli jihatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa o'z navbatida tilshunoslik sohasida izlanishni va talaffuzdagi kamchiliklarni bartarafetishnitalabetadi.

Fonetika (yunoncha: phonetikos-tovushga, tovush chiqarishga oid, tovushli, ovozli) – tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o'rganuvchi bo'limihisoblanadi.

Pashtu tili tovushlari yetti unli va o'ttiz bir undoshdan iboratdir. Undoshlar ham o'z navbatida uch guruhga bo'linadi. Talaffuz qilishda ovoz ishtirokiga ko'ra (jarangli va jarangsiz), lablar ishtirokiga ko'ra (lablangan va lablanmagan) va hosil bo'lish o'rniga ko'ra tanglay oldi, retrofleks, o'rta tanglay, yumshoq tanglay, kichik til va bo'g'iz tovushlari bo'yicha tasniflanadi.

Retrofleks (serebral) tovush tushunchasi fonetikada tilning uchi orqaga egilgan holda talaffuz qilinadigan tovushlar retrofleks undoshlar deyiladi. Rus tilida yozilgan grammatikalarda retrofleks o'rniga “церебрал” termini ishlatiladi. Pashtu tilidagi retrofleks (serebral) tovushlar oltita. Bu tovushlar transkripsiyyada ushbu harflar bilan ko'rsatiladi: [d], [t], [sh], [j], [n], [r].

↳ [d] -jarangli retrofleks undoshini talaffuz qilishda til uchi tanglayning old qismiga tekkiziladi, o'pkadan kelgan havo oqimi og'iz bo'shlig'iga kelganida til keskin ravishda tanglaydan ajraladi, ovoz paychalari harakatga kelib, portlovchi d tovushi hosil bo'ladi. O'zbek tilidagi d tovushi yumshoq va yengil jaranglasa, pashtucha d uning aksicha, qattiq va og'ir eshitiladi. Bunga misol qilib دودي [dodey]-non, ovqat, دک [dak]-to'la so'zlarini keltirsak bo'ladi.

↳ [t] -jarangsiz retrofleks undoshi hosil bo'lish o'rniga ko'ra retrofleks d bilan bir xil. Ular orasidagi farq shundaki, t tovushi talaffuzida ovoz paychalari harakatsiz qoladi, ya'ni ovoz ishtirok etmaydi. Bunga [tap]-yara, jarohat, [kat]-karavot so'zlarini olishimiz mumkin.

↳ [z] -jarangli retrofleks undoshi til uchi tanglayning old qismiga tekkazilgan holda hosil qilinadi. Bu tovush oddiy j undoshiga nisbatan yo'g'onroq va og'irroq talaffuz qilinadi. Retrofleks j undoshi Pashtu tilining g'arbiy shevasida hamda vazir, xatak, yusufzay shevalarida ishlatiladi,

markaziy, sharqiy va janubiy (Paktiyo, Paktiko) shevalarida bu tovush g bilan almashadi. Masalan, [jira-gira]-soqol, [jmnz-gmnz]-taroq, [njor-ngor]-kelin.

Ҫ [ş] -jarangsiz retrofleks undoshida til birmuncha orqaga tortilib o'rtasi ko'tarilgan holda talaffuz etiladi. Bu tovush oddiy [s] ga nisbatan yo'g'onroq va og'irroq yangraydi.

Markaziy sheva vakillari Ҫ ni x shaklida talaffuz etadilar, ammo ular talaffuzidagi [x] sharqiy sheva talaffuzidan farq qiladi. Sharqiy shevada [x] kichik til-bo'g'iz tovushi bo'lsa, markaziy shevada u til orqa, yumshoq tanglay undoshisifatidayangraydi.

Ӯ [ň] -retrofleks undoshini hosil qilishda til uchi tanglay tomon ko'tariladi, o'pkadan kelgan havo oqimi esa, qisman burun bo'shlig'i orqali o'tadi. Bu undosh oddiy n tovushiga o'xhash bo'lsa ham lekin undan og'irroq va yo'g'onroq talaffuz etiladi. Misol qilib [mna]-olma, [ban]-bog' so'zlarini olishimizmumkin.

Ҷ [ř] -retrofleks undoshi talaffuzida tilning uchi tanglayga tekkiziladi, havo oqimi og'iz bo'shlig'idan o'tayotganida esa, u keskin ravishda tanglaydan ajralib titraydi. Eshitilish jihatidan bu tovush [r] va [l] undoshlarining qorishmasi kabi yangraydi. Boshqacha qilib aytganda oddiy [r] bir tarkibli undosh bo'lsa, retrofleks [r] ikki tarkibli qorishiq tovushdir. Uni to'g'ri talaffuz qilish uchun nutq a'zolari dastlab [r] undoshini hosil qilishga chog'lanadi, uni talaffuz qilish asnosida esa to'xtovsiz ravishda l ga o'tiladi. Misollar: [rund]-ko'r,[lwar]-yuqori,baland.

Hindiy tilida asosiy uchta retrofleks (serebral) tovushlar mavjud bo'lib, bu tanglay tovushlari deb ham yuritiladi. Bu tovushlar [t], [d], [r] tovushlaridir. Undan [t] va [d] lar talaffuz jihatdan ingliz tilidagi [t] va [d] tovushlariga yaqin. Biroq ularning farqi shundaki, ingliz tilidagi [t] va [d] tovushlarini talaffuz etish jarayonida til uchi tanglay tepasiga tegib turadi, hindiy tilidagi [t] va [d] tovushlarining talaffuzida esa til tanglay tepasiga biroz tegadi-yu tezda oldinga sirg'alib boradi. Misollar: [tan], [tat], [tikat], [tin], [tim].

O.N.Shomatov "Janubiy osiyo tillariga kirish" kitobida retrofleks (serebral) tovushlarni 8 taga ajratgan. Ya'ni [T], [Th], [D], [Dh], [N], [S], [R], [Rh]. Bundan tashqari bu tovushlarni o'z ichida jarangli va jarangsiz, titrovchi tovushlar turkumiga ajratgan. [T], [th], [n] tovushlari jarangsiz bo'lsa, [d], [dh], [s] tovushlari jarangli, [r] va [rh] tovushlari titrovchi retrofleks (serebral) tovushlardir.

Pashtu va hindiy tillaridagi retrofleks (serebral) tovushlarning o'xhash jihatlari shundaki, har ikki tilda [d] jarangli, [t] jarangsiz tovushlar hisoblanadi. Ikki tildagi serebral [n] tovushi o'xhash va jarangsiz tovushdir. Ikki tilda ham bu [n] serebral tovushi deyarli katta farqqa ega tovush emas.

Pashtu va hindiy tillaridagi farqli retrofleks tovushlardan Pashtu tilida Ҷ [z] va Ҫ [ş] tovushlari bo'lsa, hindiy tilida [Th], [Dh], [S], [Rh] tovushlaridir.

Pashtu va hindiy tillaridagi serebral tovushlar qatnashgan so'zlarning aksariyati chet tilidan, ayniqsa ingliz tilidan kirib kelgan so'zlardir. Bunga misol tariqasida [tikat]-bilet, chipta so'zini har

ikki tilda ingliz tilidan kirib kelgan so‘zligini va serebral tovush bo‘lmish [t] qatnashganini misol qilish mumkin.

XULOSA. Yuqorida keltirilgan misollardan ma’lumki, xulosa o‘rnida pashtu va hindiy tillaridagi retrofleks (serebral) tovushlarning fonetika bo‘limidagi ahamiyati va o‘rni muhim omillardan biri hisoblanadi ya’ni har ikki tildagi retrofleks tovushlarning talaffuzi, ohangi va boshqa xususiyatlari, o‘xhash va farqli jihatlarga ega ekanligi ma’lumdir. Pashtu va hindiy tillaridagi serebral tovushlar qatnashgan so‘zlarni morfologik nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, chet tillaridan kirib kelgan ayniqsa ingliz tilidan olingan o‘zlashma so‘zlarni ikki tilda ko‘p uchratishimiz mumkin. Yana shuni ta’kidlab o‘tish joizki, retrofleks (serebral) tovushlarning har ikki tildagi so‘zlarni talaffuz etishda Afg‘oniston va Hindiston davlatlarining xoh rasmiy, xoh mahalliy tillaridan qat’iy nazar muhimligi va bu borada yanada ko‘plab izlanishlar olib borilishi kerakligi ahamiyatga molikdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. A.Mannonov. “Pushtu tili”-T.: 2013. -7b.
2. R.Inomxo’jayev. “Pashtu tili grammatikasi” –T.: 2020. -15-16-17-18b.
3. Rahmon Inomkhojayev. “Pashto” (An Elementry Textbook, Volume 1) –Georgetown University Press, 2011. 59-60b.
4. B.R.Rahmatov, M.Q.Sodiqova, S.S.Nurmatov, M.M.Suleymanova. “Hindiy tili” –T.: 2018 -17b.
5. O.N.Shamatov. “Janubiy osiyo tillariga kirish” –T.: 2004. -11b
6. uz.m.wikipedia.org. Fonetika